

IPAK YO'LIDAGI SUG'DLAR.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

M. Husainova

Sug'dlarning buyuk ipak yolida olib borilgan savdo va diplomatik foliyati keng organilganiga qaramay, ushbu mavzu bo'yicha yangidan yangi tadqiqotlar paydo bolmoqda. Masalan; 2014 yilda ingiliz olimi Valeriya Xansening kattagina qismi sug'dlarga bag'ishlangan 'Buyuk ipak yo'li' nomli manogirafiyasi chop etildi. "Savdoda chiniqqan" sug'd savdogarlari Buyuk ipak yo'lining muxum qisimlarini nazorat qilish maqsadida, avvalida, SHarqiy Turkiston shaxarlari va voxalariga oz ayg'oqchilarini yuborganlar, keyinchalik esa, savdo manzilgoxlarini tashkil etganlar. Keyinchalik sug'd kaloniyasi manzillari butun sharqiy qism bo'ylab tashkil etiladi va IX- X asirlargacha mavjud bo'lib , Xitoyning Chaniyan Lanchjou, Dunixuvan singari sug'dlar aloxida jamoalar bo'lib, yawaydigan shaxarlarda turiwadi. Xitoy Arxialoglari XX asrning 80 yillarida Shansi, Gansu va Ninsya piravinsiyalarida sug'd madaniyatining oziga xos namunaiari aniqlaganlar. Ninsya –Xueyning o'rta va janubiy qisimlarida shimoliy Vey sulolasi (385-534) yillar davridan buyon yashagan Shi , Kan,Ne (VI-VII asrlar) famililiyali sugdlarning sulolaviy qabristonlari shulardan iborat eng muxumidir. Buyuk ipak yolining asosiy magistrilarida joylashgan Guyuang shaxri G'arb va Sharq o'rtasidagi madaniy almashunuviga sezilarli xissa qoshgan. Sug'dlarning Guyuandagi boy qabristonlarida sug'anlar, yo'laklar, tosh lojalar, devoriy suratlar va butikli qabrtoshlari topilgan. Uhga ko'ra sug'd vakillari guyuanga milodiy III –V asrlarda SHaxrisabzdan kelganlar. Xitoy manbalariga ko'ra, xozrgi Shaxrisabz o'rnida Suse shaxri bo'lgan. Shaxar xokimi Xitoy bilan birinchilardan bo'lib diplomatik munosabatlarni o'rnatgan va mil. Avv. II asrdan boshlab Kesh deb atala boshlangan Kishi shaxrini barpo etgan. Shuningdek, epitafiyalar (kabrtosh bitiklari) xam sugdiylar faoliyatini va ularning Xitoydagi mavqelari xaqida ma'lumot beradi. Masalan, oilalarning urug' oqsoqollari savdogar bo'lgan bo'lishsa, keyingi avlod vakillari "ko'plab qatnashgan lashkarboshilar" , "otxonani boshqaruvchi amaldorlar" , markaziy xukumatda faoliyat yuritgan tarjimonlar , Guanjou okrugi bo'shligi "" (Xenam piravinsiyasi), vetereniar ,askar, dexqon bo'lganlar. Epitafiyalarda

oilaviy shajara, kasb xunarlar, kochib kelgan sug'dlar orasida orasida bo'lgan nikoxlar soni kopayib borgani xaqida ko'p malumotlar keltirilgan. Shuningdek , sug'd ismlari xam o'zlashtirilgan , xususan Shi Sheu –bu xitoy tilida tarjima qilingan avestodagi vaqt va taqdir xudosi – Zorvondir. Xitoyning shimoliy qismida sug'dlarning VI-VII asrlarda oid bit nechta mozorlari topilgan. Murdalar erni xarom qilmasligi uchun tobutlarni maxsus togliklar ornatilgan Bunday kumush turi zardushtiylikda '' Kanshe''ataladi. Sug'dlarning xitoydagi xayoti va turmush tarsi xaqidagi malumotlarni aks etiruvchi kabrtoshlari paneli yopilgan (61,5sm uzunlikdagi).Boyalgan marmar pilita ustida oz uyida yashagan boy sug'dning tasviri tushurilgan. Pilitada boy sug'dning rafiqasi bilan birga, atrofda yuqori pilanda xizmatkorlar,ikkinchi planda musiqashilar turuppasi, xususan 7-8 nafar musiqachilar arfa cholg'u asbobida musiqa ijro etayotganlari,4 va 5 nafari torli bivalar va fileyta ijro etayotgan ziyofati tasvirlangan. Tan sulolasi davrida ushbu raksni iperator Genso oldida ijro etib bergan. Buxoro va Samarqand musiqasi kopincha Tan sulolasi saroyining musiqiy reportuvaridan orin olgan. Marmarning pastki qismida xizmatkor may ichib berayotgani, yonida bugun saxnani sug'd madaniyatiga taaluqli ekanini korsatuvchi sugd kozasi tasvirlangan. U Siga pirezekturasi kago shaxridagi Mixo muzeyida saqlanmoqda. 627-644 yillarda Labnor koli atrofida bir nechta sug'd manzilgoxlari paydo boladi. Ulardan biri xitoyning qarovsiz qolgan shaxri o'rnida Kan (Samarqad) saltanatlik buyuk sardor Xan – Yanatyan tomonidan asos solingan.U bilan birga koplal Xu xalqlari xam bu yerga keladilar. Zamonaviy xitoylik tadqiqotchilarning qayt etishlaricha, Sug'dning turli shaxar, shaxar davlatlari, aniqrog'i Kan, An, Mi, Xe,Shi, Po ava boshqa shaxar davlatlari, qadimgi xitoy manbalarida ''Toqqiz Chjao U familyasi deb yurutilgan. Qitalararo aloqalar qishloq jamoalarining yopiq olamlarini buzdi, koplal turdagi intelektual foliyatlarni jadallashtirdi, dunyoqarashni kengaytirdi, diplomatik almashunuvnu rivojlantirishga imkon yaratdi. Buyuk ipak yoli fenomeninig dunyo tarixiga va xususan sugdiylarga qoshgan aloxida xissasi ana shunday ibrat. Madaniyatlararo mustaxkam aloqalar Eron, Xitoy, Sug'd madaniy ananalari sinkretizmini hamoyon etuvchi oziga xos san'at asarlarining yaratishiga turtki boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1."Moziydan sado" –ilmiy-amaliy,ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
- 2."Farg'ona vodiysida muzey ishi va faoliyati" kitob O'zbekiston Respublikasi .Madaniy meros agentligi.
- 3."Moziy soboqlari" – jurnal
- 4."San'at" jurnali.
- 5."Guliston"–ijtimoiy-siyosiy,ilmiy-badiiy,madaniy-ma'rifiy jurnal.

